

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**MODERN INTERETHNIC COMPONENTS IN THE TRADITIONAL DWELLINGS OF UZBEKS*****Sherzod Abduganiyevich Iskandarov****Associate Professor**Tashkent State Medical University Department of Social Sciences**and the Sectoral Center for Retraining and Professional Development of Pedagogical**Personnel under Tashkent State Medical University**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** cave, mountain, chayli, yurt and underground dwellings, “double dwelling” or “double house”.**Received:** 05.12.25**Accepted:** 06.12.25**Published:** 07.12.25**Abstract:** This article analyzes the modern interethnic components found in the traditional dwellings of Uzbeks. Looking back at human history, we see that each environment was distinguished by living conditions specific to it.**O‘ZBEKLARNING AN’ANAVIY TURAR JOYLARIDAGI ZAMONAVIY INOETNIK KOMPONETLAR*****Sherzod Abdug‘aniyevich Iskandarov****Dotsent**Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi va Toshkent davlat tibbiyot**universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularni malakasini oshirish tarmoq markazi**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so‘zlar:** g‘or, tog‘, chayli, o‘tov va yer to‘la, “qo‘sh joy” yoki “qo‘shxona”.**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbeklarning an‘anaviy turar joylaridagi zamonaviy inoetnik komponentlar tahlil etilgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir muhit o‘zining yashash sharoiti bilan bog‘liq holda ajralib turardi.**СОВРЕМЕННЫЕ МЕЖЭТНИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ В ТРАДИЦИОННЫХ ЖИЛИЩАХ УЗБЕКОВ*****Шерзод Абдуганиевич Искандаров****Доцент*

*Ташкентский государственный медицинский университет, кафедра социальных наук, и
Отраслевой центр переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при
Ташкентском государственном медицинском университете
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пещера, гора, чайли, юрта и землянка, «двойное жилище» или «двойной дом».	Аннотация: В данной статье анализируются современные межэтнические компоненты, встречающиеся в традиционных жилищах узбеков. Обращаясь к истории человечества, мы видим, что каждая среда отличалась своими специфическими условиями проживания.
--	---

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir muhit o'zining yashash sharoiti bilan bog'liq holda ajralib turardi. Qadimiy avlodlarimiz ham o'zlari uchun yashash manzilgohlari, g'or, tog', chayli, o'tov va yer to'lalarda istiqomat qilib kelgan. Natijada insonlar keyingi davrda, tabiiy-geografik muhitni o'zgarishi bilan an'anaviy davom e'tib kelayotgan uylarning qurilish jarayonida o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi vaqtlarga kelib esa insoniyat tarixida amalga oshirilgan ishlar natijasida turar joylardagi an'anaviy jihatlarning ma'lum qismlargina saqlanib qolgan. Ammo o'zbek xalqining turar joylarida har bir vohada o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turardi. Masalan: Qashqadaryo vohasida uylarning qurilishida sinchili uylar kamchilikni tashkil qiladi. Chunki, Qashqadaryo vohasida sinchli uylarning qurilishi unchalik ham ahamiyatiga ega emasdir. Birinchidan sinchi uylar uchun keraklik materillarni kamligi, ikkinchidan esa vohada kamroq zilzillalar bo'lganligi, uchinchidan esa yog'ingarchilik kamroq bo'lganligidir. Xorazm va Farg'onada esa uylarning sinchli etib qurilishi ko'puncha yog'ingarchilik, zilzillar va tabiiy-geografik sharoiti bilan bog'liqdir.

Nashr qilingan qator ilmiy adabiyotlarda O'zbekiston hududi aholisining an'anaviy uy-joylari, ularning etnik va mahalliy (lokal) xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqotda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashagan aholi uylari ham ikki xil ko'rinishda bo'lib, o'troqlashgan va yarim o'troq hayotiga moslashganligi aniqlandi. Bular ilmiy adabiyotlarda ham o'z qaydini topgan.

Dala tadqiqotlar natijasida o'zbek xalqning XIX-asr oxir va XX-asarning o'rtalarga qadar yarim o'troq holda yashab kelganliklaridan dalolat beradi. Bu holda yashab kelgan o'zbek aholisining asosiy mashg'ulotlari chorvachilik hisoblangan.

O'zbek xalqning o'ziga xosligi saqlansa-da, umumiy yagona me'morchilik tipi keng tarqalgan. Qadimiy uylar odatda biqiq, ko'cha va qo'shni tomoni derazasiz devor bilan o'ralgan hovlilardan iborat bo'lgan. Barcha turar joy va xo'jalik xonalarning oynalari ichkari tomonga qaratilgan. Badavlat katta oilalarda hovli ikki qismga bol-chaqa va ayollar uchun ichkari hamda

erkaklar uchun mehmonxona tarzida hashamatli xonali tashqariga bo'lingan. XX asrda Qashqadaryo hududida istiqomat qilib kelayotgan, har bir joyning, o'ziga xos yangicha bir madaniyat kerib kelishi eskicha an'anaviy madaniyatini iqrozga uchrashi innovatsion jarayonlarning jadallashi, bilan bog'liqdir.

Sovet davrining barcha bosqichlarida tovarlar tanqisligi va oziq-ovqat masalasi bilan bir qatorda uy-joy muammosi ham hamisha keskin bo'lib qolaverdi. Oktyabrdan keyingi dastlabki, yillarda bu muammo faqat musodara yo'li bilan hal qilib kelingan edi. Badavlat tabaqalardan tortib olingan uylar va xonadonlar ko'proq siyosiy jihatidan faol ishchilar va mansabdor shaxslarga ajratildi. Faqat 1924 yildan boshlab davlat yangi uy-joylar qurilishiga mablag'lar ajrata boshladi. Lekin bu mablag'lar arziyas darajada edi, shuning uchun ham davlat uy-joy qurilishi faqat Toshkent va Samarqanddagina olib borildi.

Biroq ko'rilayotgan choratadbirlarga qaramasdan, uy-joy masalasining keskinligi kamaymadi. Avvalo bu narsa mahalliy aholiga taalluqli edi chunki, turar-joy ko'pincha Markazdan kelgan ishchilar va mutaxassislarga berilardi. 30-yillarda uy-joy muammosi jadal sanoat qurilishi tufayli yanada chuqurlashdi bu, tadbir respublika shaharlariga kelgindilarning ommoviy ravishda oqib kelishi jarayoni tezlasha boshladi. Kishi boshiga hisoblaganda bir odamga mo'ljallangan uy-joy maydoninng o'rtacha hajmi shiddat bilan qisqarib bordi: 1928-29 yildagi 4,47 kv.m. dan 1939 yilda 2 kv. m. ga tushib qoldi. Shaharlarning ko'pgina aholisi (asosan kelgindilar) baraklarda, yerto'la binolarda istiqomat qilishardi. XX asrga kelib transformatsiyasiga uchrashi natijasida innovatsion o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayoni shaharda amalga oshirilgan bo'lsa, 60-70 yillardan boshlab qishloqlarda ham islohatlar o'tkazilish natijasida yangi an'anaviy turar joylar barpo eta boshladi.

Janubiy O'zbekiston an'anaviy turar joylarini maxsus o'rgangan olim O.Ibragimovning yozishicha, mavsumiy va vaqtinchalik turar joylar ichida eng ko'p tarqalganlari chaylalar, lochiqlar, kapalar va qora uylar bo'lib, ular ko'chirib yurishga qulayligi uchun ham o'troqlik va yarim o'troqlikka o'tilgan Janubiy O'zbekiston aholisida an'anaviy saqlanib qolgan.

Buning natijasida voha aholisi chorvalik hamda dehqonchilik an'analar bilan shug'ullanib kelganlar. Tog'li hududlarda doimiy turar joylar asosan soy bo'ylarida, anhor yoqalarida bunyod etilgan bo'lib, uylarni qurishda hududning tabiiy-geografik xususiyatlari e'tiborga olingan. Xususan, uy-joylar quriladigan hududga quyosh yorug'ligi tushish holati, daradan o'tadigan sovuq shamol yo'lidan saqlash, yomg'ir va selning soyga tez oqib tushishi, uylarni suvga va dehqonchilik qiladigan hududlarga yaqinroq joylarda qurish, qolaversa tabiiy ofatlardan saqlanish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Ayrim etnografik guruhlarda (qarluq, barlos va xokozo) yaqin davrgacha qishqi, loydan qurilgan uylardan tashqari o'tov yoki kapa saqlanib kelgan. Etnograf olim K. Shoniyoov

qipchoqlarda o'tov eshigining kunchiqar tomonga (sharqqa) qaratib o'rnatilishini ularning qadimdan quyoshga sig'inganliklari bilan izohlagan.

Ayrim etnografik guruhlarda (qarluq, barlos, saroy, qo'ng'iroq, va xokazo) yaqin o'tmishgacha qishki loydan qurilgan uylardan tashqari o'tov yoki kapa saqlanib kelgan. Dala tadqiqotlarida voha aholisining istiqomat qilib kelayotgan, ayrim etnik guruhlar hozirgi vaqtda ham o'tov (qora uylarda) yashab kelmoqda. Bunday ko'rinishdagi uylar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan etnik guruhlarda uchraydi. XX asrga kelib o'zbek xalqining turmush-tarzi va madaniy hayotida transformatsiya uchrashi bilan innovatsion jarayoni jadallashdi. Bu esa o'zbek xalqining nafaqat turar joylarida balki, barcha sohalarda yuz berdi. Tadqiqotlar natijasida to'plagan dala matriellarini tahlil shuni ko'rsatmoqda.

Yozgi uy bog' (hayot) uy deb yuritishgan. Mahalliy aholining asosiy qismi hozirgi vaqtga kelib dehqonchilik qilish davrida o'tovlar tikib dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishmoqda. Aholi o'tovni sotib olish uchun 3 ta yoki 2 ta sigirni pul bo'lsagina sotib olishi mumkin. Keraga panjaralari tuya yoki ho'kiz terisidan tayyorlangan maxsus tasmalar bilan berkitilgan. Bu tasmalar keraga ko'ki deb atalgan. Keraganing ko'ki oshiq-moshiq vazifasini bajargan. Keragalar shunday tayyorlanganki, ularni yoysa balandligi 1,40-1,60 metrlik panjara hosil bo'lgan. O'tovning (qora uy) uvuqlari 2,50 metrdan -2,80 metrgacha, uzunlikda (Akademik K.Shoniyozov o'zbek qarluqlarida uvuqlarning uzunligini 1,7 m deb ko'rsatgan) edi. 1960 yil shifr uylar bo'lgan har bir uy murisi bo'lgan ekan demoxot bo'lgan bo'yicha bilan yopishgan ekan fevral oyi ko'chib maydon Qamayning o'tov (qora uy) tuyada agar yo'q 60 ta so'zi ishtirokda bitta o'tovni hosil qilishgan edi. Bu kapani vohaning yuz, do'rmon, qarluq, barlos urug'iga mansub aholi «xos kapa», qo'ng'iroqlar esa «chum» deb ataganlar.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'zbek urug'larning azaliy davom e'tib kelayotgan turar joylaridagi o'zgarishlari jarayoni tezlasha boshladi. Ilmiy tadqiqotlarimizning natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalqining turar joylari o'ziga xos lokal milliy xususiyati bilan farqlanib kelmoqda. Bu urug'larning o'troq holatga o'tish jarayoni XVIII-asrdan boshlab o'troq holatga o'ta boshladilar. Shu davrdan boshlab aholining yashashida tub o'zgarishlar yuz berdi. Oldingi davrlarda ko'chib yurgan o'zbek urug'larning bir qanchasi yarim o'troq tarzida yashay boshladilar.

Ularning keyingi davrlarda o'troqlash jarayoni natijasida aholining faqatgina chorvadorlari o'troq xolda yashay boshladilar. Elshunos olim Akademik K. Shoniyozovning ilmiy tadqiqotlari natijasida shunday fikrga keldi. Uning ta'kidlashicha, o'tovlarda dam olishgan, issiq ovqat tayyorlashgan va shaxsiy buyumlari turgan. Bunday qishloqlar yaylov deb atalgan. Har bir qishloqning o'z yaylovi bo'lib, ular har yili o'z yaylovlariga chiqqanlar. O'zbekistonning ayrim hududlarida cho'ponlarning o'tov tiklagan joylari "qo'sh joy" yoki "qo'shxona" deb atalgan.

Voha aholisi lochiq, chayli, qora uylarda yashovchi qarluqlar, do'rmonlar, barloslar, o'tmishda keng foydalanganlar. Lochiq turar joy sifatida turkiyalik yuruklarda, ozarbayjonlarda,

qolaversa, qirgiz va turkmanlarda ham mavjuddir. Hozirgi paytda ham vohadagi lo‘lilar yoz oylarida ko‘chib yurganlarida lochiqda yashaydilar. O‘rganilayotgan davrda Qashqadaryo vohasida turar joylarning yana bir turi chodir bo‘lib, undan vaqtinchalik turar joy sifatida foydalanilgan.

Ayrim tadqiqotchilarning qayd etishicha, hovlilarning ichki va tashqi qismlarga bo‘linishi qadimgi Yunoniston va Rim kabi davlatlarda ham mavjud bo‘lib, islom dini o‘zidan ancha avval mavjud bo‘lgan ayollarning jamiyatda ajralib yashash shaklini qonunlashtirgan.

XX-asr boshlarida Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari an‘anaviy turar joylari “ichkari” hamda “tashqari” hovlilarga bo‘lingan. Ko‘plab tadqiqotlarda bu jihatlar ayollarni nomahram kishilarning nazaridan chetda bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan islomiy qarashlar bilan bog‘liq deb ta‘kidlaydi.

XX-asr boshlaridan uy-joy qurish va uni jihozlash an‘analariga bir oz yangiliklar kira boshlaydi. Dastavval pishgan g‘ishtdan uy qurish, tunuka bilan tom yopish, derazalarga oyna solish va ko‘cha tomonni ochish kabi yangiliklar oddiy xo‘jaliklarda paydo bo‘ladi, kerosin, keyin elektr lampasi, fabrika va zavodlarda ishlangan uy-ro‘zg‘or buyumlari ishlatila boshlaydi. Qishloq uylarida ham ancha yangiliklar paydo bo‘ladi, ayniqsa, qurilish materillari va uslubida ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y beradi. Hozirgi vaqtda esa zamonaviy uylar ko‘p qavatli imoratda yashab kelmoqda, bo‘lsalar, oldingi yashash sharoitdan tubdan farq qiladi. O‘zbekona turar joylarning elektrlashgan, g‘ishtdan, paxsa, pol, patalok, sinch uslublardan iborat. Xalqona turar joylar tuzilish va qurilishiga turli tabiiy geografik muhit, xo‘jalik turmush tarzi, etnik o‘ziga xoslik ta‘sir ko‘rsatgan.

XX asrning birinchi yarmidagi sodir etgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oqibatida uy-joy qurish va jihozlash an‘analariga ham anchagina yangiliklar kirib kela boshladi. Dastlab pishiq g‘ishtdan uy qurish, tunuka bilan tom yopish, derazalarga oyna solishi va ochish kabilar rusum bo‘ldi. Xonadanlarda kerosin, kerosin lapmasi, zamonaviy uy-ro‘zg‘or buyumlaridan foydalanila boshlandi. Qishloq uylarining qurilish materiallari sifati va uslubida o‘zgarishlar ro‘y berdi. 1960 yillardan boshlab esa Janubiy O‘zbekiston hududidagi qaqroq cho‘llarga suv chiqarilib, o‘zlashtirila boshlandi. Qadimgi manzilgohlar, turar joylar o‘rniga yangi shaharlar, zamonaviy qishloq va qo‘rg‘onlar qad ko‘tarib, uy-joylarning qiyofasi ham butunlay o‘zgardi.

Shuningdek, vohada XX asrning birinchi choragida ayrim hovlilar ichki va tashqi hovlilardan iborat bo‘lib, ichki hovli ayollar va oilaning tan mahramlari uchun bo‘lsa, tashqi hovlida esa asosan bir necha xonali mehmonxonalar bo‘lib, tashrif buyurgan mehmonlar shu tashqi hovlida kutib olinib, shu yerdan kuzatilgan. Xonadon sohibalari esa yuzlari nomahramga tushmasin, deb tashqi hovliga o‘tmagan. Uylar 1930 yillarga qadar hovli va tashqi qismlarga bo‘lingan. Qashqadaryo vohasining uylari boshqa hududlardan ajralib turishga sabab ichki va tashqi hovli uylarni ko‘proq boy tabaqa kishilar tomonida qurilgandir.

O‘tmishda odamlarning turar joylari bir xonali uylardan iborat bo‘lgan, hozirga kelib esa uylarning qurilishi xom g‘ishtli bo‘lib uylar ko‘pxonali hisoblanadi. Uylarning jihozlanishida ham

o'zgarishlar yuz bermoqda, ularning ichki qismlarda mebel, gul va naqshdan iboratdir. Bu kabi jarayonlarini jadallashi XX asrning o'rtalaridan boshlab kengroq tarqala boshladi. Vohada o'ziga xos yangicha innovatsion jarayonlari yuz berdi.

Tadqiqotlarimiz natijasida voha o'zbeklarining ma'daniy hayotida o'ziga xos yangicha bir madaniyatini kirib kelishi transformatsiyaga uchradi va innovatsion davri bo'ldi. XX asrga kelib mahalla guzarlarning tashkil toposhi. Bu esa aholining ijtimoiy, hayotni yaxshilashga sabab bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashi lozimki, XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar voha aholisi an'anaviy turar joylarining o'ziga xos transformatsiyalashuviga va innovatsion jarayonini tezlashishiga olib keldi. Transformatsion jarayonlar ko'proq aholi badavlat qatlamining turar joylarida o'z aksini topgan. Vohada istiqomat qilib kelayotgan o'zbek etnik komponentlardagi joylash o'rnini hamda o'troqlash jarayonini bo'lgan. Boshqacha tarzda ta'kidlaydigan bo'lsak mintaqaning ko'p ming yillik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatdan umumiy taraqqiyoti yo'nalishlari hamda tadqiq qilingan hudud aholisining xo'jalik mashg'ulotlari turlari, turmush tartiblari va mahalliy tabiiy shart-sharoitlari ta'sirida shakllangan. Voha aholisi an'anaviy turar joylari orasida o'troq dehqon aholi uchun xos bo'lgan loydan hamda toshdan barpo etilgan uylar bo'lib, o'troq aholi uy-joylari turlari, ularning tuzilishi va tiklash usullaridan keskin farq qilmagan holda ayrim lokal xususiyatlarga ham ega bo'lgan. Aholining turar joylari qurilishidagi o'zgarishlar jarayonida xom g'isht, pol, patolok va shu kabilar asosida zamonoviy uylar qurilmoqda. Xususan, vohaning tog'li qishloqlaridagi uy-joylar boshqa zonalaridagiga nisbatan mustahkam tuzilishi bilan ajralib turgan. XX-asarning boshlarda uylarning qurilishi bilan asrning oxirdagi uylarning qurilishda tubdan farq majud. Ayniqsa mustaqillik yillarida o'zbekona uylarning qurilishi kengroq amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Iskandarov, S. (2025). Etnologiyada an'anaviy madaniyat muammosi (Doctoral dissertation).
2. Kholikova, R. E., Narkulov, D. T., Abilov, U. M., Khudoykulov, A. B., Karimov, N. R., Iskandarov, S. A., ... & Niyozova, N. S. (2023). Impact of Renaissances in The History of Uzbekistan And Causative Factors of The Third Renaissance. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2518-e2518.
3. Musayev, O., Abidova, Z., Abdalov, U. M., Orzikulov, B., Narkulov, S. D., Rakhimov, S., ... & Nematov, O. (2023). Issues Of National Identity in The People of Central Asia. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2796-e2796.
4. Abdiganievich, I. S. Views On Ethnonyms Of Arabics Living In Central Asia. *World Bulletin of Social Sciences*, 20, 90-93.
5. Искандаров, Ш. А. (2017). Ўзбекистон араблари: анъаналари ва трансформацион жараёнлар Т.“. Янги нашр.

6. Sherzod, I. (2024). Rituals related to child birth and upbringing of central asian arabs. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 4(04), 75-80.
7. Tashpulatovich, N. D., Dusmuratovich, N. S., Abdiganievich, I. S., Gazievna, A. S., Nigmatovna, G. A., Usarovich, R. B., & Gaybullaevich, U. G. (2021). Methods for increasing the effectiveness of teaching history.
8. Ixtiyor o'gli, R. N., Abduganiyevich, I. S., & Gaybullayevich, U. G. (2021). The Types of Diseases and Their Classification in the Working of Mahmud Kashgari"Devonu Lug'ati-T-Turk.
9. Искандаров, Ш. (2013). Ўзбекистон арабларининг оилавий маросимларида анъанавийлик ва замонавийлик.
10. Искандаров, Ш. (2013). Ўзбекистон арабларининг этномаданияти: анъанавийлик ва замонавийлик.